

**YOSHLAR O'RTASIDA JINOYATCHILIK VA
HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISHGA BARCHAMIZ BIRDEK
JAVOBGAR VA MAS'ULMIZ**

*Xudoyberdiyev Muxriddin Qodir o'g'li
Jizzax viloyati Forish tumani MMTBga
qarashli 31-maktab amaliyotchi psixolog*

KIRISH

Davlatimiz rahbarining 2025 yil 3-yanvardagi «2025-yilda respublika mahallalarida xavfsiz muhitni yaratish va huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi samaradorligini yanada oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-1 sonli qarorlari yurtimizda jinoymatchilikni oldini olish borasida qilinayotgan ishlarimizni yana bir yuqori pog'onaga olib chiqdi. Xalqimiz bekorga bir kun janjal bo'lgan uyda qirq kun baraka bo'lmaydi, deb bejiz aytmagan. Haqiqatan, osoyishtalik bor joyda baraka, ishda unum bo'ladi.

Huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoymatchilikni jilovlash masalasi ham davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Yoshlar o'rtasida jinoymatchilikka qarshi kurashish, huquqbuzarliklarning oldini olish yuzasidan huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan birga mahalliy hokimlik va boshqa mutasaddi idoralar zimmasiga muhim vazifalar yuklangan. Ular buni bajarish bo'yicha turli chora-tadbirlarni amalgalashmoqda. Shunga qaramay jinoymatlar uchrayotgani, jinoymat qilgan shaxslarning har uchinchisini yoshlar tashkil qilayotgani afsuslanarli. Sodir etilayotgan jinoymatlarda yoshlar ham ishtirokchi bo'layotgani va ular orasida maktab voyaga yetmagan maktab o'quvchilari borligi achinarli holdir. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, jinoymatni aniqlash, uning negizini topish, huquqbuzarliklarning oldini olish, uni jilovlash mutasaddilarning eng asosiy vazifasidir. Jinoyatchiga jazo berishdan ko'ra, uning oldini olish afzal. Bu yo'nalishda hamkorlikni kuchaytirish lozim. Jinoyatchilikka qarshi kurash nafaqat huquq-tartibot organlarining, balki barchamizning faoliyatimiz mezoni bo'lishi kerak.

Farzand niholga o'xshaydi. Uni yoshligidan qanday tarbiyalasak, shunday voyaga yetadi. Bunda, albatta, oila, mahalla, ta'lim tashkiloti va jamiyatdagi muhit muhim ahamiyatga ega. Zero, o'zi, oilasi, xalqi, ma'naviy ildizlari haqida yetarli tushunchaga ega bo'lgan bola jinoymat ko'chasiga qadam bosmaydi. Hozirgi kunda yoshlarning intellektual va ijodiy salohiyatini namoyon qilish, ularning fuqarolik javobgarligini va olib borilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini oshirish borasida bir qator amaliy ishlar qilinmoqda. Jinoyatchilikka qarshi kurashish va huquqbuzarliklarning oldini olish borasidagi faoliyatni muvofiqlashtirish, ekstremizm, terrorizm va uyushgan jinoymatchilikning boshqa shakllariga qarshi kurashish bo'yicha tashkiliy-amaliy choralarni kuchaytirish darkor.

Korrupsiyaga qarshi kurashishning tashkiliy-huquqiy mexanizmlarini takomillashtirish va samaradorligini oshirish, aholining huquqiy madaniyati va ongini yuksaltirish, bu borada davlat tuzilmalarining fuqarolik jamiyati institutlari, ta'lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro samarali hamkorligini tashkil etish bilan bog'liq aniq vazifalar belgilangan. Ma'rifatparvar alloma Abdulla Avloniy yoshlar tarbiyasini "hayot - mamot masalasi", deb ta'riflagan. Zero, tarbiyasi mo'rt yoshlardan jamiyat, mahalla yoki oila uchun hech qanday naf bo'lmaydi. Yoshlarning jinoyatga qo'l urishi tarbiyada yo'l qo'yilgan xato yoki befarqlikning achchiq in'ikosidir.

Kelajagimiz yoshlarning qo'lida ekanligini unutmagan holda ular tomonidan jinoyat yoki huquqbazarlik emas, ezgu va buniyodkorlik tashabbuslari chiqishini, shunday ishlar amalgga oshirilishini ta'minlash uchun barchamiz birdek harakatda bo'lmos'imizi shart. Biz amaliyotchi psixologlar va o'qituvchilar ham yoshlar tarbiyasiga befarq bo`lmasdan avvalo har bir o'quvchiga ota-onasiday munosibatda bo`lib tarbiya berishimiz va huquqbazar o'quvchi emas balki millat kelajagi uchun xizmat qiladigan vatanparvar yoshlarni tarbiyashmiz shart!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qodirov, S. (2023). "Yoshlar jinoyatchiligining oldini olishda ijtimoiy omillar". Toshkent: Huquq va jamiyat nashriyoti.
2. Tursunova, M. (2022). "Yoshlar huquqbazarliklarini kamaytirish: profilaktika va ta'lim". Samarqand: Ijtimoiy fanlar nashriyoti.
3. Ergashev, A. (2021). "Jinoyatchilikka qarshi kurashda yoshlar o'rni". Buxoro: Huquqiy ta'lim nashriyoti.
4. Rasulova, D. (2023). "Yoshlar jinoyatchiligi va uning oldini olish strategiyalari". Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
5. Karimov, B. (2022). "Huquqbazarliklarning oldini olishda yoshlar tarbiyasining roli". Namangan: Ijtimoiy rivojlanish nashriyoti.
6. Islomov, N. (2023). "Yoshlar jinoyatchiligi va profilaktika choralarini takomillashtirish". Toshkent: Huquqshunoslik nashriyoti.
7. Sobirova, L. (2021). "Yoshlar o'rtasida jinoyatchilikning oldini olishda oilaning ahamiyati". Andijon: Ijtimoiy fanlar nashriyoti.